



## IQTISODIY FAOLIYAT SUBYEKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

**Fazilov Sardor Dilmurod o'g'li**

*Mustaqil tadqiqotchi, Guliston davlat universiteti*

*Tel: +998945851984*

*E-mail: sardorfazilov@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada iqtisodiy faoliyat subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar, ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish mexanizmlari hamda innovatsion yondashuvlarning o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy xavfsizlik, innovatsion faoliyat, iqtisodiy barqarorlik, ichki va tashqi tahdidlar, iqtisodiy faoliyat.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения экономической безопасности хозяйствующих субъектов с теоретической и практической точек зрения. Анализируются внутренние и внешние угрозы, влияющие на экономическую безопасность, механизмы снижения их негативных последствий, а также роль инновационных подходов.

**Ключевые слова:** экономическая безопасность, инновационная деятельность, экономическая стабильность, внутренние и внешние угрозы, экономическая деятельность.

**Annotation.** This article discusses the issues of ensuring the economic security of economic entities from a theoretical and practical perspective. The internal and external threats affecting economic security, mechanisms for reducing their negative consequences, and the role of innovative approaches are analyzed.

**Key words:** economic security, innovative activity, economic stability, internal and external threats, economic activity.

### KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy faoliyat subyektlarining barqaror ishlashi va rivojlanishi iqtisodiy xavfsizlik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Global raqobatning kuchayishi, texnologik o'zgarishlar va tashqi iqtisodiy beqarorlik sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Iqtisodiy faoliyat jarayonida moliyaviy, moddiy, axborot va kadrlar resurslariga nisbatan yuzaga keluvchi tahdidlar subyektlar faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muayyan tizim va mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizim iqtisodiy-huquqiy, tashkiliy va innovatsion choralarni o'z ichiga olgan holda, iqtisodiy faoliyat subyektlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalashga qaratilgan. Ayniqsa, innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim



yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy faoliyat subyektlarining barqaror ishlashi va rivojlanishi iqtisodiy xavfsizlik darajasi bilan chambarchas bogʻliqdir. Global raqobatning kuchayishi, texnologik oʻzgarishlar va tashqi iqtisodiy beqarorlik sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Iqtisodiy faoliyat jarayonida moliyaviy, moddiy, axborot va kadrlar resurslariga nisbatan yuzaga keluvchi tahdidlar subyektlar faoliyatining samaradorligiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash muayyan tizim va mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizim iqtisodiy-huquqiy, tashkiliy va innovatsion choralarni oʻz ichiga olgan holda, iqtisodiy faoliyat subyektlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalashga qaratilgan. Ayniqsa, innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy faoliyat subʼektlarining barqaror ishlashi va rivojlanishi iqtisodiy xavfsizlik darajasi bilan bevosita bogʻliq hisoblanadi. Iqtisodiy faoliyat jarayonlarida turli xil ichki va tashqi tahdidlar mavjud boʻlib, ular moliyaviy barqarorlikka, resurslar samaradorligiga, axborot taʼminotiga va kadrlar salohiyatiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shu sababli iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda ustuvor yoʻnalish sifatida qaralmoqda. Iqtisodiy faoliyat subʼektlarining iqtisodiy xavfsizligini taʼminlash muayyan konsepsiya asosida amalga oshiriladi. Ushbu konsepsiya iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlashning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, obʼekt va subʼektlari, shuningdek, strategik va taktik yondashuvlarni oʻz ichiga oladi. Mazkur tizim iqtisodiy-huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmuasi orqali subʼektlarning iqtisodiy, moliyaviy, moddiy, axborot va kadrlar resurslariga nisbatan ichki va tashqi xavflarning salbiy taʼsirini kamaytirishga qaratilgan.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimining asosiy maqsadi iqtisodiy faoliyat subʼektlarining barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda xavf-xatarlarni minimal darajaga tushirishdan iborat. Bu jarayonda iqtisodiy-huquqiy va tashkiliy mexanizmlar hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlib, ular iqtisodiy xavfsizlik tizimining poydevori hisoblanadi. Bu masalalar nafaqat alohida subʼektlar, balki milliy iqtisodiyot barqarorligi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan iqtisodiy faoliyat mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Iqtisodiy tizimda yangiliklarni joriy etish, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish orqali resurslar samaradorligi oshiriladi. Avstriyalik iqtisodchi Yozef Shumpeter tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashuvlarga koʻra, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi yangiliklar va innovatsion



yechimlar hisoblanadi. Yangiliklarni joriy etish iqtisodiy tizimni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Yangiliklar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, yangi mahsulot turlarini joriy etish, bozorlar va resurs manbalarini kengaytirish, shuningdek, tashkiliy va boshqaruvdagi yangilanishlarni qamrab oladi. Ushbu jarayonlar innovatsion faoliyat tushunchasi bilan ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan iqtisodiy faoliyat innovatsiyalarga tayangan holda amalga oshirilganda uning iqtisodiy xavfsizlik darajasi sezilarli darajada oshadi.

### **XULOSA**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy faoliyat subyektlarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash va ularning salbiy ta'sirini kamaytirish subyektlar faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari kengayadi. Shu bois iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalariga kompleks va tizimli yondashuv zarur hisoblanadi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). Iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5718-son Farmon. <https://www.lex.uz>
2. Pimenov, N. A. (2019). Iqtisodiy xavfsizlik tizimida moliyaviy risklarni boshqarish. Moskva.
3. Burtsev, Yu. A. (2016). Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillar. Mir novoy ekonomiki, №1.
4. Hoshimov, P. Z. (2015). Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasi va tizimi. Iqtisod va moliya, №11.